

SA'DIY SHEROZIYNING "GULISTON" ASARI TAHLILI

Ashuraliyeva Latofat Farhod qizi

*Termez iqtisodiyot va serves universiteti
Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)*

Anotatsiya: Maqolada buyuk fors-tojik adabiyotining namoyondasi, Muslihiddin Sa'diy Sheroziyning Guliston asari va uning o'zbekcha tarjimasi borasida fikr mulohazalar keltirilgan bo'lib, uning tarjimasidagi o'ziga xosligi va 8 bobda keltirilgan odob axloq qoidalaridan iboratligi.

Kalit so'zlar: Sa'diy Sheroziy, Guliston o'zbekcha tarjima, Bo'ston.

Asosiy qism

Sharqu G'arbda Sa'diy, Shayx Sa'diy nomi bilan tanilgan, ko'p xalqlar ustoz deb tan olgan Mutafakkir shoir hisoblanadi. Asl nomi Musharafiddin ibn Muslihiddin Abdullohdir. Sa'diy 1184- yilda Eroning qadimiy tamaduni o'chog'I Sherozda davlat xizmatchisi oilasida dunyoga kelgan. Sa'diy Sheroziy ijodining mahsuli dunyoning o'nlab tillarga tarjima qilingan asarlar sirasiga kiradi. Shoislom Shomuhamedovning Sa'diyga xos betakror ruhiyatni saqlab qolgan ya'ni barcha xalqqa ma'lum haqiqatni yuksak nazokat va fusunkor shaklda o'zbek tilida ifodalab bizlargacha yetqazib kelgan. Shoislom Shomuhamedov qalami ostida chiqan ilmiy tadqiqotlar, tarjima va badiiy asarlarning jami oltiyuzdan ortiqligi hamda forschadan qilingan tarjimalar nashrining umumiy soni bir milliondan oshiq. Bu borada gap ketganda Sa'diyning "Guliston" va "Boston" asarlari haqida ta'kidlanib o'tiladi. "Guliston" asari didaktik asar hisoblanadi. Bu ikki asar XX asrning 70-yillarida ilk bor nashr qilingan. Hozirgi kunda bu nodir asarlarni o'zbekcha tarjimasini toppish qiyinlashib ketgan.

"Guliston" asarini o'zbekcha tarjimasi G'afur G'ulom bilan Shoislom Shomahmudov va nasr qismini Rustam Komil tomonidan forschadan o'zbek tilida tarjima qilishgan M0skvada nashr etilgan.

Fors tojik adabiyotida Sa'diyning maqomi juda yuksak maqomda turadi. Uning asarlari hayotiy tajriba asosida yozilgan bolib, "Bo'ston" (1257) va "Guliston" (1258) yilda yozgan. Bi ikki nodir asar Sa'diyga juda katta shuhrat keltirdi.

"Guliston" asari 8 bobdan iborat. "Guliston"dagi har bir hikoya qissadan she'r pandlar bilan yozilgan. Ba'zi baytlari nasr tarkibida ham keladi. Mutafakkir unda ilm o'rganish, mehnatsevarlik, ta'lim-tavoze, kattalarga xurmat, kichiklarga izzat, otionalarga etibor, til va muomala, so'zlashish odobi qoidalar boshqa ko'p masalalarda nasihat qilganlar. Bu hayotiy voqealarda sudxo'rlik, tovlamachilik, tamagirlik, tanballik, yolg'onchilik, ikkiyuzlamachilik, qaroqchilik, firibgarlik, singari illatlarni ayovsiz la'natlaydi va bu ishlarni pokiza insonlar qarshi kurashishlarini da'vat qiladi.

Bu katta asarida yozuvchi eng muhim va eng katta siyosiy, iqtisodiy voqealarni aks ettirar, axloqiy normalarni, o'sha davr kishilarni xilma-xil obrazlarini talqin etadi.

Sa'diy hayotda mardonovor mehnatga, rostgo'ylikka, bilim hunar orttirishga, chaqiradi. U tekinxo'rlar va zolimlarni ayovsiz fosh qilib, hammaga ozor beruvchi zolim kishidan ko'ra odam yukini yengil qiluvchi ish hayvonlarni afzal ko'radi:

Bechora esgakki betamizdir,
Yuk ko'targani uchun azizdir.
Ishlovchi xokiz va yoki eshak
Zolim kishidan yaxshidur beshak.

“Guliston” asari 8 bobdan iborat. **Birinchi bob**- Podshohlar odati bayoni 36-hikoyasi bor. Har bir hikoyasida podshohlarga xos har xil xarakterlar keltirib o'tilgan.

Qochishning iloji bo'lmasa agar,
Qo'l bilan xanjarning damidan tutar
Nochor qolgan kishi zo'r berar tilga,
Mag'lub bo'lgan mushuk tashlanur itga.

Ikkinchi bob. Darveshlar axloqi bayoni 33-hikoyadan iborat. Bu ikkinchi bobda darveshlarning xulq atvorlari va o'g'riliklari keltirilib o'tilgan.

Uchinchi bob. Qanoatning fazilati bayoni 21-hikoyadan iborat. Bu uchinchi bobda shoir insonlarning bor-u yoqqa qanoat qilishni o'rgatadi.

To'rtinchi bob. 11 ta hikoyat iborat Sukut saqlashning foydali bayoni bunda shoir shunday hikoyasida bayon etadiki „gapirishdan oldin uni oylab ko'rib gapirish kerakligini, sizning yaxshi gapingiz ham dushmanga foyda bo'lishini ta'kidlab o'tadi.

Beshinchi bob. Ishq va yoshlik bayoni 11-hikoyasi bor. Bu bobda shoir ishq va yoshlik bayonida juda qiziqarli hikoyalarni yozgan. Masalan 9- hikoyasida. Bir kishining go'zal yosh xotini o'ldi. Mulkillab qolgan qaynonasi mahr yuzasidan uning uyida yashab qoladi. U odam qaynonasining vaysashidan juda bezor bolgan edi lekin mahrni topib berishga qoli kaltalik qilardi. Shu sababli qaynonasi bilan yashashga majbur edi. Bir kuni bir necha oshna og'aynilari uni ko'rgani keldilar. Ulardan biri dedi.”Aziz yoringning firoqida nechuk kechyapti?” u kishi javobida dedi: “Qaynonamning basharasini ko'rish mening uchun xotinimning diydorini ko'rmaslikdan ko'ra og'riqlidir”.

Oltinchi bob. Zaiflik va keksalik bayoni 8- hikoyasi bor. Bir kuni nodonlik bilan onamga baqirdim. Onam qattiq xafa bo'lib, bir burchakda o'tirib shunday dedi:

Ne xush so'zlar aytib, tashladi savol
Esingda bo'lsaydi gudaklik chog'ing'
Bag'rimda yotganing murg'ak, bemajol.
Qilarmiding menga bul kun jafo,
Sen she'rdek yigit-u, men keksa, behol?

Yettinchi bob. Tarbiyaning ta'siri bayoni 17 ta hikoyadan iborat. Bu 7-bobda shoir tarbiya haqida juda qiziqarli hikoyalarni aytib o'tgan. Bir vazirning takasaltang o'g'li bor edi. Vazir o'g'lini donnishmand huzuriga elitib. Shuni tarbiya qil, shoyad aqli kirib, odam bo'lsa, dedi. Donishmand vazirzodani uzoq muddat tarbiya qildi, foydasi bo'lmadi. Bolaning otasiga birordan orqali: "O'g'ling odam bo'lmadi, meni ham aqldan ozdirdi", deb xabar beradi.

Sakkizinchi bob. Suhbat qoidalari bayoni. Umr mol-mulk to'plash uchun emas, balki mol-mulk osuda hayot kechirish uchundir! "Kim baxtiyoru kik baxtsiz?" Oqil dedi: "Baxtiyor yeb-ichadi, ekadi. Baxtsiz yig'ib-yigib o'lib keladi"

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ikromjonivna, J.S. Axadjon o'g'li, A. A. (2023). Qo'qon universiteti xabarnomasi. 159-162.
2. O. Mahliyoxon, J. Shaxnozaxon (2024). DRAMA AND ARTISTIC READING IN PRIMARY GRADES: ISBN: 142
3. Imomaliyeva. M. (2023) AMIRIY IJODIDA PAYG'AMBARLAR BILAN BOG'LIQ TIMSOL-TUSHUNCHALAR TAHLILI.